
Fanlar akademiyasi “Yosh olimlar uyi” foydalanishga topshirildi


Bahoriy bayramlarga munosib sovg’a sifatida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan “Yosh olimlar uyi” ta’mirlanib, foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan bugun, 3 mart kuni tantanali tadbir tashkil etildi. Tadbirni FA prezidenti Bexzod Yuldashev ochib berdi va yosh olimlarni kelayotgan ayyomlar hamda ushbu shinam va qulay uy bilan qutladi.











Yosh olimlar va ularning oila a’zolari Fanlar akademiyasi tomonidan ularga qaratilayotgan e’tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan mamnun bo’ldi.

Ma’lumot o’rnida, ushbu 2 qavatli “Yosh olimlar uyi” 32 ta oilaga mo’ljallangan va barcha qulayliklarga ega.